

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN
HUKM

2021 yil oktabr oyining 28 kuni jinoyat ishlari bo'yicha Qarshi shahar sudi, Qarshi shahar "Maholot" MFY binosida, ochiq sayyor sud majlisida, raislik qiluvchi sudya Sh.Eshimov, sudya yordamchisi O.Hamidovning kotibligida, Qarshi shahar prokuraturasi ish o'rganuvchisi A.Raximov, jabrlanuvchi A.Uzoqov, sudlanuvchi A.Yuldoshevning himoyachisi advokat X.Normurodovning ishtirokida, sudlanuvchi Yuldoshev Alimardon Olimovichga nisbatan №1-1801-2104/460-sonli jinoyat ishini ko'rib chiqdi. Ish hujjatlariga ko'ra:

Yuldoshev Alimardon Olimovich - 1985 yil 29 iyul kuni Qarshi shahrida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, oilalik, turmush o'rtog'i vafot etgan, 2 nafar farzandi bor, muqaddam sudlanmagan, Qarshi shahridagi "Master Ekonom stroy invest" MCHJ rahbari vazifasida ishlaydi, vaqtincha ishsiz, Qarshi shahar, Shoxbekat mahallasi, Istiqlol ko'chasi, 4-uyda yashaydi, 2021 yil 27 sentabr kuni 29 sentabr kuni qadar JPKning 227-moddasi tartibida ushlanib, 2021 yil 29 sentabr kuni qadargi qaroriga asosan qamoqdan ozod qilinib, ehtiyot chorasi tariqasida garov qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2021 yil 30 sentabr kuni olgan,

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 168-moddasi 3-qismining "b" bandi bilan ayblangan.

Sud sudlanuvchi va jabrlanuvchining ko'rsatuvlarini, taraflarning muzokarasi va sudlanuvchining oxirgi so'zini tinglab, jinoyat ishi hujjatlarini o'rganib chiqib va ishda mavjud bo'lgan dalillarga baho berib, quyidagilarni

A N I Q L A D I:

Sudlanuvchi Yuldoshev Alimardon Olimovich aldash va ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida 2020 yil fevral-mart oylarida tanishi Uzakov Alisher Kurbanovichni aldab, Kasbi tumani hokimligining oldidagi favvorani atrofida qurilish-ta'mirlash ishlarini olib borishga kelishib, ishlar to'liq amalga oshirilgan bo'lsa, kelishilgan 20.000.000 so'mlik "ish haqini keyinroq beraman"-deb aldab, uning ish haqini bermasdan firibgarlik jinoyatini sodir qilgan.

Bundan tashqari, A.Yuldoshev o'zining jinoiy harakatlarini takroran davom ettirib, aldash va ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida 2020 yil noyabr oyidan 2021 yil mart oylari oralig'ida Uzakov Alisher Kurbanovichni aldab, uning ishonchiga kirib o'ziga tegishli bo'lgan 70K8850A davlat raqamli Lasetti rusumli avtomashinani bo'lib bo'lib to'lash sharti bilan (vikupka) sotishini va'da qilib, unga ushbu



avtomashinani biroz muddatga berib qo'yib, undan 40.000.000 so'm pulni qo'lga kiritib, keyin bergan avtomashinasini qaytarib olib, 40.000.000 so'm pulni firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritgan.

Sudlanuvchi A.Yuldoshev sudda, aybiga iqrорlik bildirib, jabrlanuvchi A.Uzokovni tanishini, unga nisbatan adovati yo'qligini, 2018 yil 28 avgust kundan buyon "Master Ekonom stroy invest" firmasi rahbari sifatida faoliyat yuritib kelishini, uning firmasi qurilish firma bo'lib, boshqa tashilotlar bilan shartnoma imzolab, qurilish ishlari bilan shug'ullanishini, qurilish ishlarini amalga oshirganligi sababli quruvchi Uzoqov Alisher Kurbanovich bilan tanishganini, 2020 yilning boshlarida A.Uzakov hamda uning yana 5 ta sherigi bilan shartnoma qilib, Kasbi tumani markaziga favvora qurilishi va uning yoniga "bruschatka" gulli g'ishtlarini terish zarur bo'lganini, shu sababdan uning qo'l ostida A.Uzakov va uning 5 nafar sherigi bilan bir yarim oy davomida ishlashganini, ularning ish haqidan 20.000.000 so'm miqdorida qarz bo'lib qolganini, u bilan munosabatlari yaxshi bo'lganligi sababli, ushbu pulni keyinroq berishga kelishganini, 2020 yil sentabr oylarida u A.Uzakovga o'ziga tegishli bo'lgan Lasetti rusumli 70K8850A davlat raqamli avtomashinani berishini, buning uchun u unga 40.000.000 so'm miqdorida pulni berishi kerakligini, avtomashina umumiy narxi 120.000.000 so'mni tashkil qilishini, shunda u unga yana 60.000.000 so'm miqdoridagi pulni unga keyinchalik bo'lib-bo'lib to'lash (vikupka) asosida berishga kelishganini, u esa unga ishonib, Qarshi shahridagi Gulshan mahallasi "Koka Kola" savdo markazini yaqinida 40.000.000 so'mni unga berganini, jami unga A.Uzaqovning 60.000.000 so'm pulini olganini, keyin u unga avtomashinani berganini va 1 oyga qolmay yana qaytarib olganini, keyin esa ushbu avtomashinani u boshqa kishiga sotib yuborganini, hozirgi kunda jabrlanuvchi A.Uzoqovga yetkazilgan barcha zararlarni to'liq qoplab berganini, jabrlanuvchining unga nisbatan da'vosi yo'qligini bayon qilib, qonuniy yengillik berishni so'radi.

Sudlanuvchi A.Yuldoshevning sud hukmida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etganligi, o'zining aybiga iqrорlik bildirib bergan ko'rsatuvidan tashqari:

-jabrlanuvchi Uzokov Alisherning sudda, sudlanuvchi A.Yuldoshevni tanishini, unga nisbatan shaxsiy adovati yo'qligini, 2020 yilning fevral-mart oylarida o'zi rahbar sifatida yana 4 nafar ishchi u bilan birga 5 kishi bo'lib, Yuldashev Alimardon bilan kelishib, Kasbi tumani markazidagi hokimiyat binosining yaqinida joylashgan favvora atrofida "bruschatka" gulli g'ishtlarini terish ishlari bilan shug'ullanishganini, ular u yerda 2 oy davomida ishlaganini, shunga ko'ra Yuldashev Alimardon u va u bilan birga ishlagan quruvchi yigitlardan jami 20.000.000 so'm ish haqi hisobidan qarz bo'lib qolganini, u ishchilarga boshliq bo'lganligi sababli, ularning pulini o'zi berib yuborganini, A.Yuldashev undan 20.000.000 so'm qarz bo'lib qolib bermasdan yurganini, oradan biroz vaqt o'tganidan keyin A.Yuldoshev unga o'zining mokriy asfalt rangli Lasetti rusumli 70K8850A davlat raqamli avtomashinasini muddatli to'lovga (vikupka) berishini aytib, buning uchun u



unga 40.000.000 so‘m miqdorida pul berishini, shunda unga jami 60.000.000 so‘m puli bo‘lishini, avtomashinani esa 120.000.000 so‘mga sotib olishga kelishib, qolgan yana 60.000.000 so‘m pulni esa keyinchalik bo‘lib-bo‘lib berishini unga aytganini, u esa uning gaplariga ishonib, A.Yuldashevga yana bo‘lib-bo‘lib 40.000.000 so‘m miqdorida pulni unga 2020 yilning oxiri va 2021 yilning boshlarida Qarshi shahri Gulshan mahallasi yaqinida joylashgan “Koka-kola” savdo markazini yaqinida uning o‘zining qo‘liga berganini, lekin jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan keyin jami 60.000.000 so‘m miqdoridagi pulni u unga qaytarib bermaganini, hozirgi kunda sudlanuvchi A.Yuldoshev unga yetkazilgan barcha zararlarni to‘liq qoplab berganini, uning sudlanuvchi A.Yuldoshevga nisbatan da‘vosi yo‘qligini bayon qilib, qonuniy yengillik berishni so‘rab bergan ko‘rsatuvi;

-bundan tashqari, sudlanuvchi A.Yuldoshevning aybi, jabrlanuvchi A.Uzaqovning arizasi; yuzlashtirish bayonnomasi, ashyoviy va yozma dalil deb topish to‘g‘risidagi qaror hamda jinoyat ishida to‘plangan boshqa dalillar bilan o‘z isbotini topdi.

Sud, dastlabki tergov organi tomonidan sudlanuvchi A.Yuldoshevga nisbatan qo‘yilgan ayb kvalifikatsiyasini muhokama qilib, quyidagi asoslarga ko‘ra, A.Uzaqovni aldab va uni ishonchini suiiste‘mol qilib, o‘zganing mulkini takroran firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritganligi sababli tergov organi tomonidan uning jinoiy harakati O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 168-moddasi 3-qismining “b” bandi bilan to‘g‘ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblaydi.

Sud, sudlanuvchi A.Yuldoshevga nisbatan jazo turi va miqdorini belgilashda jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, uning shaxsini e‘tiborga olib, uning jazosini og‘irlashtiruvchi holat deb, g‘araz va past niyatlarda jinoyat sodir etganligini (JK 56-moddasi), jazosini yengillashtiruvchi holatlar deb, uni aybiga iqrorlik bildirib qilmishidan pushaymonligini, oilaviy sharoitini, jabrlanuvchining da‘vosi yo‘qligini, yetkazilgan zararlar qoplanganligini (JK 55-moddasi) inobatga olib, unga nisbatan JK 168-moddasi 3-qismining “b” bandi qonun sanksiyasi doirasida axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlashni, JKning 62-moddasiga asosan uni qamoqda o‘tirgan har bir kunini axloq tuzatish ishlarining uch kuniga tenglashtirib hisoblab, tayinlanayotgan jazodan chegirishni, ushbu jazoni ish joyida o‘tattirishni belgilashni, unga nisbatan qo‘llanilgan garov ehtiyot chorasini hukm qonuniy kuchga kirgandan so‘ng bekor qilishni va garov pulini garovga qo‘yuvchiga qaytarishni lozim topdi.

Shuningdek, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlar qoplanganligi, uning sudlanuvchi A.Yuldoshevga nisbatan da‘vosi yo‘qligini qayd etishni, ashyoviy dalil – 10401-1/2021-371-sonli jinoyat ishi bo‘yicha jabrlanuvchi A.Uzakov taqdim etgan A.Yuldoshev nomidan 06.08.2021 yilda yozilgan qo‘lyozma tilxat jinoyat ishi bilan birga saqlashni, manfaatdor taraflarga jinoyat natijasida yetkazilgan boshqa zararlarni undirish masalasida kelgusida nizo kelib chiqsa



fuqarolik tartibida sudga murojaat qilishlari mumkinligi tushuntirishni va shunday huquqlari ochiqda qoldirishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 454-457, 460, 463, 465-468, 471, 473,474-moddalariga amal qilib, sud

HUKM QILDI:

Sudlanuvchi Yuldoshev Alimardon Olimovich - O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 168-moddasi 3-qismining "b" bandida ko'rsatilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybli deb topilsin.

Sudlanuvchi Yuldoshev Alimardon Olimovichga Jinoyat kodeksi 168-moddasi 3-qismining "b" bandi bilan ish haqining 20 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 2 (ikki) yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlansin.

A.Yuldoshevning 2021 yil 27 sentabr kundan 2021 yil 29 sentabr kuniga qadar qamoqda o'tirgan 2 (ikki) kun muddati JKning 62-moddasiga asosan 6 (olti) kun axloq tuzatish ishlari jazosiga tenglashtirilib, mazkur hukm bilan tayinlangan jazodan chegirilsin va unga o'tash uchun ish haqining 20 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 1 (bir) yil 11 (oy) oy 24 (yigirma to'rt) kun axloq tuzatish ishlari jazosi qoldirilsin.

Axloq tuzatish ishlari jazosining muddati hukm ijroga qaratilib, ish haqidan belgilangan foiz miqdori undirilgan kundan boshlab hisoblansin. Jazo A.Yuldoshevning ish joyida o'tattirilsin. Jazo ijrosini nazorat qilish Qarshi shahar IIO FMB probatsiya guruhi zimmasiga yuklatilsin.

Sudlanuvchi A.Yuldoshevga nisbatan qo'llanilgan "garov" ehtiyot chorasi hukm qonuniy ko'chga kirgandan so'ng bekor qilinsin.

Sudlanuvchi A.Yuldoshevning garov ehtiyot chorasi sifatida Qashqadaryo viloyat IIBning "Mikrokreditbank" ATIB Qashqadaryo viloyat filialidagi depozit hisob raqamiga to'langan 5.400.000 so'm pul garov quyuvchi Yuldoshev Asatillo Olimovichga qaytarilsin.

Jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlar qoplanganligi, uning sudlanuvchi A.Yuldoshevga nisbatan da'vosi yo'qligi qayd etilsin.

Ashyoviy dalil - 10401-1/2021-371-sonli jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchi A.Uzakov taqdim etgan A.Yuldoshev nomidan 06.08.2021 yilda yozilgan qo'lyozma tilxat jinoyat ishi bilan birga saqlansin.

Manfaatdor taraflarga jinoyat natijasida yetkazilgan boshqa zararlarni undirish masalasida kelgusida nizo kelib chiqsa fuqarolik tartibida sudga murojaat qilishlari mumkinligi tushuntirilsin va shunday huquqlari ochiqda qoldirilsin.

Hukmdan norozi tomon, hukm e'lon qilingan kundan, sudlanuvchi va jabrlanuvchilar esa hukm nusxasini olgan kundan boshlab, yigirma sutka ichida shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining apellyatsiya instansiyasiga apellyatsiya tartibida shikoyat berishga, prokuror esa protest bildirishga haqlidirlar.

Raislik qiluvchi sudya

Sh.Eshimov

